
№2 2026

ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№2 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич
доктор философии (PhD) по психологическим наукам

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек - доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Е.Е. - доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Н.Ю. - кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Б.С. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Г.Н. - доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Б.Б. - доктор педагогических наук, профессор
Филиппова О.Г. - доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Мирзаева Ф.О. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев М.М. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Умарова Н.Ш. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Н.З. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Абдуллаева Д.У. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Н.Б. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Джабборов Х.Х. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов М.Р. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева С.М. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева М.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов З.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбанбоев А.Н. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Г.М. - доктор исторических наук, профессор
Давлатова С.Т. - доктор исторических наук, профессор
Курбанова М.Б. - кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Б. - доктор философских наук, профессор
Махмудова Д.А. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Юлдашев С.Р. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Д.Б. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Е.Г. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Джексембаева Г.С. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Жалилов Н.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов А.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова М.М. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Халилова Р.Р. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Ш.У. - доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Ш.Ф. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Ж.Ш. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Ф.Х. - кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences

EDITORIAL BOARD
Rejep Uzyurek - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Ye.E. - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina N.Yu. - Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva B.S. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Ibragimova G.N. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov B.B. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova O.G. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Mirzaeva F.O. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Bafaev M.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Umarova N.Sh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Ismoilova N.Z. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Abdullaeva D.U. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Atabayva N.B. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Jabborov Kh. Kh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Akramov M.R. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Tuychieva S.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Gadoeva M.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Rasulov Z.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Qurbonboev A.N. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Tanieva G.M. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova S.T. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Kurbonova M.B. - Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev B. - Doctor of Philosophy Sciences, Professor
Makhmudova D.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Yuldashev S.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Botirova D.B. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Alimova Ye.G. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Dzheksembayeva G.S. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences (Kazakhstan)
Jalilov N.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Vahobov A.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Raxmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Khalilova R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Bobojonov Sh.U. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor
Sharipov Sh.F. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Butayev J.Sh. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Bobojonova F.X. - Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Managing Editor
Xayitov Xayotjon Xikmat ugli

OLIMPIYA TERMA JAMOASI SPORTCHILARINI MUSOBAQAOLDI PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

Nazarov Davron Baxtiyor o‘g‘li
Alfraganus universiteti “Psixologiya” kafedrasi
v.b. dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy sport psixologiyasida psixologik barqarorlik va stressga chidamlilikni rivojlantirish masalalari hamda ularni baholash va monitoring qilishda innovatsion texnologik vositalarning o‘rni tahlil qilingan. Olimpiya sportida sportchilardan yuqori darajadagi stressga chidamlilik, emotsional o‘zini-o‘zi boshqarish va psixofiziologik moslashuv talab etiladi. Tadqiqot natijalari ROFES, poligraf va Psychotest apparatlarining sportchilarning ruhiy hamda fiziologik holatini raqamli, obyektiv va standartlashtirilgan ko‘rsatkichlar asosida baholashda samarali vosita ekanligini ko‘rsatdi.

Mazkur texnologiyalar tayyorgarlik jarayonini individual monitoring qilish, psixologik tayyorgarlik strategiyalarini ishlab chiqish hamda musobaqalarga tayyorgarlik samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, yuqori natijali sportchilarda ijtimoiy moslashuv, stressga chidamlilik va emotsional barqarorlikni ta’minlashning sport psixologiyasidagi dolzarb ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sport psixologiyasi, psixofiziologik tayyorgarlik, stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik, ROFES, poligraf, Psychotest, Olimpiya sporti, individual monitoring, psixologik tayyorgarlik, raqamli diagnostika.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития психологической устойчивости и стрессоустойчивости в современной спортивной психологии, а также роль инновационных технологических средств в их оценке и мониторинге. Олимпийский спорт предъявляет высокие требования к стрессоустойчивости спортсменов, способности контролировать эмоции и адаптироваться к психофизиологическим нагрузкам.

Результаты исследования показали, что аппараты РОФЭС, полиграф и Psychotest являются эффективными инструментами для оценки психического и физиологического состояния спортсменов на основе цифровых, объективных и стандартизированных показателей. Использование данных технологий позволяет осуществлять индивидуальный мониторинг тренировочного процесса, разрабатывать стратегии психологической подготовки и повышать эффективность подготовки к соревнованиям. Кроме

того, подчеркивается актуальность обеспечения социальной адаптации, стрессоустойчивости и эмоциональной стабильности спортсменов высокой квалификации как важнейших факторов спортивной деятельности.

Ключевые слова: спортивная психология, психофизиологическая подготовка, стрессоустойчивость, эмоциональная стабильность, РОФЭС, полиграф, Psychotest, олимпийский спорт, индивидуальный мониторинг, психологическая подготовка, цифровая диагностика.

Abstract. This article examines the issues of developing psychological resilience and stress resistance in modern sports psychology, as well as the role of innovative technological tools in their assessment and monitoring. Olympic sports require athletes to demonstrate a high level of stress resistance, emotional self-regulation, and psychophysiological adaptation.

The findings indicate that ROFES, polygraph, and Psychotest devices are effective tools for assessing athletes' psychological and physiological conditions using digital, objective, and standardized indicators. These technologies enable individualized monitoring of the training process, the development of psychological preparation strategies, and the enhancement of competition readiness. The study also highlights the significance of social adaptation, stress resistance, and emotional stability as essential factors for achieving high athletic performance.

Keywords: sports psychology, psychophysiological readiness, stress resistance, emotional stability, ROFES, polygraph, Psychotest, Olympic sports, individual monitoring, psychological preparation, digital diagnostics.

KIRISH

Yurtimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog‘lom va barkamol shaxs sifatida tarbiyalash davlat va jamiyat oldidagi eng muhim strategik vazifalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan, ularning jismoniy, ruhiy, axloqiy va ma’naviy sifatlarini rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish hamda ijtimoiy faolligini oshirish jarayonida jismoniy tarbiya va sportning roli beqiyos ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi PF-18-son “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida aholi o‘rtasida sportni ommalashtirish va sog‘lom turmush tarziga keng jalb etish, sport ta’limi tizimini takomillashtirish, sport turlari bo‘yicha yuqori natijador sportchilar zaxirasini yaratish, Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish, nufuzli xalqaro musobaqalarda sportchilarning muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlash, sport infratuzilmasini modernizatsiya qilish,

sohani bosqichma-bosqich raqamlashtirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish Sport vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan.

Mazkur ustuvor yo‘nalishlardan kelib chiqib, yuqori malakali sportchilarni musobaqalarga kompleks tayyorlash, ularning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror sport natijalariga erishishini ta’minlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Olimpiya terma jamoasi sportchilarini musobaqalarga psixologik jihatdan tayyorlash jarayonida zamonaviy texnologik vositalardan foydalanish, psixologik monitoring va tahlil tizimlarini joriy etish hamda sportchilarga ko‘rsatiladigan psixologik-pedagogik yordam mexanizmlarini xalqaro standartlar asosida ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Hozirgi kunga qadar sport psixologiyasi aniq psixologik vazifalarni (masalan, psixologik barqarorlikni shakllantirishni) to‘liq hal etishga imkon beradigan texnologiyalarni taklif eta olgani yo‘q. Aksincha, u ko‘pincha umumiy xarakterga ega bo‘lgan tavsiyalar majmuasini taqdim etadi va aniq nazorat nuqtalari hamda samaradorlik mezonlarisiz uzoq muddatli ish jarayonini nazarda tutadi, ayniqsa, aniq psixologik vazifalarni hal etish masalasida. Shu sababli, psixologik ishlarning zarurati va muhimligini anglagan holda ham, murabbiylar va sportchilar psixologik tavsiyalarni qabul qilish hamda ularni amaliyotga tatbiq etishga yetarli darajada tayyor bo‘lmay qolmoqdalar [1, 10-bet].

Olimpiya sporti sportchi faoliyatida shunday murakkab vaziyatlarni yuzaga keltiradiki, bu holatlarda undan yuqori darajadagi stressga chidamlilik, o‘zini tuta bilish, maqsadga erishishga xalaqit beruvchi kuchli destruktiv va ayrim hollarda ijobiy emotsiyalarni nazorat qila olish qobiliyati talab etiladi. Ushbu talablar nafaqat musobaqa jarayonida, balki undan tashqarida ham sportchining psixologik reaksiyalarini boshqarish va ularni ongli ravishda nazorat qilish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur holat, ayniqsa, yuqori sport natijalariga erishgan sportchilar uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki ular doimiy ravishda ommaviy axborot vositalari, muxlislar va jamoatchilik diqqat markazida bo‘ladilar. Minglab tomoshabinlar qarshisida chiqish qilish, ommaviy axborot vositalari vakillariga tez-tez intervyu berish sportchilarda psixologik muammolar yuzaga kelishi xavfini oshirishi mumkin. Shu bois, yuqori malakali sportchilarning ijtimoiy moslashuvi sport psixologiyasining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi [2, 7-bet].

Boshqa mamlakatlardan farqli ravishda, AQSH o‘z olimpiyachilarining nafaqat taktik-texnik va jismoniy tayyorgarligiga, balki har bir sportchining psixologik tayyorgarligiga ham jiddiy e’tibor qaratadi. Amerika Psixologlar

Assotsiatsiyasi (APA) ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda Olimpiya darajasidagi sportchilar bilan psixologik yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar ehtiyoj asosida sezilarli darajada kengaytirilmoqda. Maykl Felps va Simona Baylz kabi katta tajribaga ega, dunyoga mashhur sportchilarda ham psixologik muammolar kuzatilgani hamda ularning mutaxassis psixologlar bilan ishlagani APAning rasmiy manbalarida qayd etilgan.

“Biz AQSHga yetib olishimizgacha ancha bor”, deb o‘tirish yaramaydi. Zamonaviy professional sport transformatsiyaga uchrayotganini tan olish, eskicha uslubda ishlayotgan murabbiylar hamda mashg‘ulotlarni olib borayotgan sportchilar, ayniqsa, natija past bo‘lgan hollarda nimanidir o‘zgartirish, rivojlanish va yangiliklarni qabul qilishni o‘rganishlari zarur bo‘lgan vaqt keldi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, mutaxassis psixolog va amaliyotchi sport psixologi sifatida quyidagi faktlarni to‘pladik hamda ularni professional sport sohasidagi murabbiylar, ayniqsa, sportchilarimiz va mutasaddi tashkilotlar vakillari bilishlari foydadan holi bo‘lmaydi, degan fikrdamiz (Akobir Abdullayev) [4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Musobaqaga tayyorgarlik jarayonida sportchilarda stress, charchoq, motivatsiyaning pasayishi va diqqatni jamlash (konsentratsiya) darajasidagi o‘zgarishlar keng tarqalgan psixofiziologik hodisalar hisoblanadi. Ushbu o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash hamda sportchining funksional holatini obyektiv baholash uchun ROFES apparati samarali diagnostik vosita sifatida qo‘llaniladi.

Rofes - bu elektropunkturaga asoslangan apparat-dasturiy tizim bo‘lib, inson organizmining umumiy funksional holati, stress darajasi, vegetativ tonus va psixo-emotsional reaksiya kabi parametrlarni baholash imkonini beradi. https://rofes.uz/production/rofes-professional/	

ROFES apparati sportchining psixofiziologik holatini bir necha yo‘nalishlarda tahlil qilish imkonini beradi. Stress va charchoq darajasi vegetativ nerv tizimining reaksiyalari orqali aniqlanadi, emotsional barqarorlik ruhiy holat indekslari yordamida baholanadi, adaptatsion resurslar esa sportchining stressga qarshi moslashuv qobiliyatini o‘lchashga xizmat qiladi. Shuningdek, energetik balans organizmning umumiy holatini aks ettiruvchi parametrlar orqali ifodalanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar sport psixologiga sportchining ruhiy va fiziologik holati to‘g‘risida aniq xulosalar chiqarish imkonini yaratadi.

ROFES apparati tayyorgarlikning turli bosqichlarida ruhiy bosimning ortib borayotgan yoki ortmayotganligini, stressga chidamlilik darajasini hamda maksimal emotsional yuklama holatlarini oldindan aniqlash imkonini beradi. Monitoring natijalari sport psixologi va murabbiyga individual tayyorgarlik rejasini moslashtirish, tayyorgarlik samaradorligini oshirish hamda sportchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tayyorgarlik dasturlarini optimallashtirish imkonini beradi.

ROFES apparatining ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, u sportchining ruhiy va fiziologik holatini subyektiv baholash o‘rniga raqamli ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Natijada stress va diqqat darajasidagi o‘zgarishlarni, ayniqsa, musobaqaoldi holatlarda aniqlash mumkin bo‘ladi. Mazkur natijalarga tayangan holda individual tayyorgarlik strategiyasini shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi. ROFES an’anaviy klinik diagnostika vositasi emas, balki qo‘shimcha diagnostik metod sifatida qo‘llaniladi [6].

Xulosa qilib aytganda, ROFES apparati sportchilarning psixologik tayyorgarligini baholashda stress holatini aniqlash, emotsional barqarorlikni tahlil qilish, individual tayyorgarlik samaradorligini oshirish hamda murabbiy va psixologga real vaqt rejimida aniq ma’lumotlarni taqdim etish imkonini beradi. Shu orqali zamonaviy texnologik vositalar yordamida sportchilarning musobaqalarga psixologik tayyorligi kompleks va aniq tarzda monitoring qilinadi hamda tayyorgarlik samaradorligi oshiriladi.

Poligraf apparati insonning fiziologik reaksiyalarini real vaqt rejimida o‘lchash va tahlil qilish imkonini beruvchi qurilma hisoblanadi. Poligraf yurak urish tezligi, arterial qon bosimi, nafas olish tezligi va ritmi, shuningdek, ter bezlari faoliyati (galvanik teri reaksiyasi) kabi fiziologik parametrlarni qayd etadi va tahlil qiladi.

Poligraf (ko‘pincha “yolg‘on detektor” deb ataladi) - bu insonning fiziologik reaksiyalarini, jumladan yurak urishi, qon bosimi, nafas tezligi va ter bezlarining faoliyatini o‘lchash orqali uning **emotsional va stress holatini** aniqlashga xizmat qiluvchi apparat. https://sudex.uz/?p=3407	

Yurak urishi va qon bosimidagi o‘zgarishlar sportchining stress yoki tashvish darajasini baholash imkonini beradi. Yurak urish tezligi va arterial qon bosimining doimiy yuqori bo‘lishi ortiqcha stress holatini ko‘rsatishi mumkin. Nafas olish tezligi va ritmi esa sportchining musobaqaga tayyorlik darajasi hamda emotsional

barqarorligini baholashga xizmat qiladi. Chuqur va ritmik nafas olish stressni kamaytirishga yordam bersa, tez va nomutanosib nafas olish ortiqcha asabiylashuv belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Ter bezlari faoliyati esa nerv tizimining reaksiyalari va psixologik yuklanish darajasini aniqlashda ishonchli indikator hisoblanadi. Ushbu o‘lchovlar sport psixologiga obyektiv va raqamli ma’lumotlarni taqdim etadi hamda sportchining individual psixologik tayyorgarlik darajasini aniqlashga yordam beradi. Poligraf orqali olingan ma’lumotlar boshqa psixologik testlar natijalari bilan birgalikda tahlil qilinganda sportchining umumiy holatini yanada aniqroq baholash imkonini beradi [5].

Poligrafning ilmiy ahamiyati shundaki, u sportchining fiziologik va psixologik holatini raqamli hamda obyektiv tarzda baholash, stress va emotsional barqarorlikni tahlil qilish, shuningdek, musobaqaga tayyorgarlik jarayonida psixofiziologik moslashuv dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Shu bilan birga, poligraf sport psixologiyasi va sport fiziologiyasi sohalarida yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim empirik ma’lumotlar manbai sifatida ham qo‘llaniladi. Amaliy jihatdan poligraf tayyorgarlik mashg‘ulotlarini individuallashtirish, musobaqaoldi psixologik treninglarni samarali rejalashtirish hamda sportchining psixofiziologik holatini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi. Natijada ortiqcha stress va charchoq holatlarining oldini olishga erishiladi [7].

Poligraf natijalari mustaqil tibbiy tashxis vositasi hisoblanmaydi. Shu sababli, undan foydalanishda natijalarni boshqa diagnostik metodlar, jumladan, psixologik testlar va sport psixologining kuzatuvlari bilan birgalikda talqin etish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, poligraf apparati sportchilarning musobaqaga tayyorgarligini baholashda stress va emotsional yuklanish darajasini aniqlash, tayyorgarlik jarayonini individual moslashtirish, psixologik trening va mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish hamda sportchining ruhiy barqarorligini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, poligraf sport psixologining faoliyatini obyektivlashtiradi va musobaqalarga tayyorgarlik jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologik vosita sifatida u sportchilarning psixofiziologik holatini baholash hamda murabbiylar tomonidan asoslangan qarorlar qabul qilinishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Psychotest apparati kompyuterlashtirilgan psixologik baholash va diagnostika tizimi bo‘lib, sport psixologiyasida sportchilarning ruhiy holati, stress darajasi, motivatsiyasi, diqqat va konsentratsiya qobiliyati hamda psixofiziologik tayyorgarligini obyektiv va standartlashtirilgan tarzda aniqlash imkonini beradi. Mazkur apparatura avtomatlashtirilgan testlarni taqdim etadi, javoblarni avtomatik ravishda qayd qiladi, natijalarni statistik va normativ ko‘rsatkichlar bilan

taqqoslaydi hamda hisobotlarni tezkor va aniq shakllantiradi. Bu esa sport psixologiga sportchining individual xususiyatlarini chuqur tahlil qilish va baholashda qulaylik yaratadi.

Psychotest - bu psixodiagnostika va psixologik baholashni avtomatlashtirishga mo‘ljallangan **kompyuter asosidagi apparat va dasturiy kompleks** bo‘lib, insonning ruhiy, emotsional va kognitiv holatini o‘lchash uchun psixologik sinovlar (testlar)ni taqdim etadi. U oddiy psixologik testlarni elektron shaklda boshqaradi, natijalarni avtomatik qayd etadi va tahlil qiladi, bu esa klassik testlar bilan solishtirganda **aniq va tez natija beradi**. https://neuroimpulse.uz/uz-nc-pshyhotest-expert/	

Sport psixologiyasida Psychotest apparati quyidagi psixologik va kognitiv parametrlarni baholashda muhim vosita hisoblanadi: stressga javob reaksiyalari, diqqat va konsentratsiya darajasi, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati, emotsional barqarorlik, motivatsiya darajasi hamda kognitiv funksiyalar. Mazkur parametrlar sportchining ruhiy va psixofiziologik tayyorgarlik holatini baholash imkonini beradi hamda tayyorgarlik jarayonini individual tarzda optimallashtirish uchun asos yaratadi [3, 52-54-betlar].

Ilmiy nuqtayi nazardan, Psychotest apparati sportchining psixologik va kognitiv ko‘rsatkichlarini raqamli hamda standartlashtirilgan usulda o‘lchash imkonini beradi. Shu asosda ushbu apparat sport psixologiyasi va sport fiziologiyasi sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borish, stress va emotsional yuklanish dinamikasini tahlil qilish hamda tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish uchun ishonchli ma’lumotlar manbai sifatida xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa u sportchilarning tayyorgarlik mashg‘ulotlarini individual xususiyatlariga moslashtirish, musobaqaoldi psixologik treninglarni samarali rejalashtirish hamda sportchining psixofiziologik holatini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi. Bu esa ortiqcha stress va charchoq holatlarining oldini olish, musobaqa jarayonida diqqat va konsentratsiyani maksimal darajada saqlash hamda sportchining ruhiy barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Psychotest natijalari murabbiy kuzatuvlari va boshqa diagnostik metodlar bilan birgalikda qo‘llanilgandagina maksimal samaradorlikka erishiladi.

XULOSA

Zamonaviy Olimpiya sportida sportchilarning yuqori natijalarga erishishi ularning psixologik barqarorligi va psixofiziologik moslashuv darajasiga bevosita bog‘liqdir. ROFES, poligraf va Psychotest kabi zamonaviy texnologik vositalar sportchilarning ruhiy hamda fiziologik holatini obyektiv, raqamli va standartlashtirilgan ko‘rsatkichlar asosida baholash imkonini beradi. Ushbu apparatlar yordamida individual monitoringni tashkil etish, stress va charchoq holatlarini erta aniqlash hamda tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, texnologik diagnostika vositalaridan foydalanish sportchilarning psixologik tayyorgarligini yanada chuqurroq tahlil qilish, individual yondashuv asosida psixologik qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqish va musobaqaoldi tayyorgarlik samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bois ROFES, poligraf va Psychotest kabi vositalarni sport psixologlari hamda murabbiylar faoliyatiga kompleks tarzda integratsiya qilish sportchilarning musobaqalarga psixologik tayyorligini kuchaytirish, stressga chidamliligini oshirish va xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Малкин, В. Р. Психотехнологии в спорте : учеб. пособие / В. Р. Малкин, Л. Н. Рогалева ; науч. ред. В. Н. Люберцев. - Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2013. - 96 с.

2. Высочина, Н. Л. Психологическое обеспечение подготовки спортсменов в олимпийском спорте : монография / Н. Л. Высочина. - Москва : Спорт, 2021. - 302 с.

3. Кац, А. С. Возможности компьютерной психодиагностики личности в образовательном процессе вузов спортивного профиля: результаты пилотажного исследования / А. С. Кац, Ю. И. Смолина, А. А. Зверев. - Электронный ресурс. - Режим доступа: https://cyberleninka.ru/article/n/vozmozhnosti-kompyuternoy-psihodiagnostiki-lichnosti-v-obrazovatelnom-protsesse-vuzov-sportivnogo-profilya-rezultaty-pilotazhnogo/viewer (дата обращения: 23.06.2026).

4. Спортчилар учун психологик тайёргарлик ҳақида 5 та факт. - Электронный ресурс. - Режим доступа: https://olamsport.com/oz/news/sportchilar-uchun-psixologik-tayyorgarlik-haqida-5-ta-fakt (дата обращения: 23.06.2026).

5. How Lie Detector Tests Promote Fair Play in Sports. - Электронный ресурс. - Режим доступа: https://www.polytest.org/how-lie-detector-tests-promote-fair-play-in-sports/ (дата обращения: 23.06.2026).

6. РОФЭС Россия. - Электронный ресурс. - Режим доступа: https://vk.com/rofesrussia (дата обращения: 23.06.2026).

7. Наука и спорт: современные тенденции. - Электронный ресурс. - Режим доступа: https://sciencesport.ru/ (дата обращения: 23.06.2026).

YOSHLAR HUQUQIY ONGINI SHAKLLANTIRISH – HUQUQIY NIGILIZMGA QARSHI KURASHNING USTUVOR OMILI Turdiyev Bexruz Sobirovich	6
TA'LIM JARAYONIDA AKADEMIK STRESS VA UNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich	**12**
ZAMONAVIY YOSHLARDA O'ZIGA BAHONI ADEKVATLASHTIRISH ORQALI STRESSGA BARQARORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna., Ismoilova Moxinur Kamilovna	**17**
АЛГОРИТМ ПРОВЕДЕНИЯ НАРРАТИВНО-ЭКСПОЗИЦИОННОЙ ТЕРАПИИ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ РЕАБИЛИТАЦИИ ДЕТЕЙ, ПЕРЕЖИВШИХ ТРАВМАТИЧЕСКИЙ ОПЫТ В УСЛОВИЯХ ТЕРРОРИСТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ Юлдашев Санжар Рузимуродович	**25**
OLIMPIYA TERMA JAMOASI SPORTCHILARINI MUSOBAQAOLDI PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI Nazarov Davron Baxtiyor o'g'li	**38**
IJTIMOIY TARMOQLARDA YOLG'ON AXBOROTLARGA MOYILLIKNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA NAMOYON BO'LISH MEXANIZMLARI Nurmatov A.N	**46**
O'SMIR SUZUVCHILARDAGI ICHKI NIZOLAR VA ULARNING SPORT FAOLIYATIGI TA'SIRI Mavlanov Donyor Ergash o'g'li	**54**
YOSHLARNI NIKOH YOSHI HAQIDAGI ADEKVAT TASAVVURLARI OTA-ONA OILASIDAGI MA'NAVIY MUHITNING BARQARORLIGIGA MOSLIGINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEZONLARI Abdullayeva Aropatxon Rustamovna	**61**

BOLALARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDAGI KOGNITIV, HISSIY-MOTIVATSION VA PEDAGOGIK OMILLAR Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**67**
DINIY KONTENTNING RAQAMLI AXBOROT MAKONIDA SHAXS ONGIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIRI VA AXBOROT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI Soliyev Otabek Davlatjon o'g'li	**73**
MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA TALABALARGA O'QUV MATERIALLARINI MUSTAQIL O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	**85**
ONALIK FENOMENI: FANLARARO TALQIN VA OILAVIY-PEDAGOGIK MAZMUNI Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna	**91**
PRAGMALINGUISTIC ASPECTS OF ENGLISH AND UZBEK PRINT AND ONLINE NEWS TEXTS Istamova Dilnoza Sadulloyevna	**100**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA RUHIY SALOMATLIKNI SAQLASHDA QONUNLARNING O'RNI VA TA'SIRI Bahodirova Marhaboxon Toxirjon qizi	**106**

LIDERLIK – ILMIY TADQIQOTLARNING PREDMETI SIFATIDA

(Mavzu bosh harflarda, Times New Roman 14 shriftda, 12 ta so‘zdan oshmagan holda)

Abdullayev Abdulla Abdullayevich
Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, psixologiya fanlari doktori

(Muallif F.I.Sh., ish joyi, lavozimi, ilmiy daraja va unvoni Times New Roman 14 shriftda to‘liq yozilishi kerak)

Annotatsiya: Maqolaga annotatsiya o‘zbek, rus va ingliz tillarida taqdim etilishi lozim. Annotatsiya maqolaning qisqacha mazmunini yoritib berishi, unda tadqiqotning dolzarbligi, maqsadi, metodologiyasi, asosiy natijalari hamda ilmiy-amaliy ahamiyati qisqacha aks ettirilishi talab etiladi. Annotatsiya hajmi 100-150 ta so‘zdan oshmagan, bir butun matn shaklida yozilishi, unda iqtiboslar, jadvallar, formulalar va adabiyotlarga havolalar keltirilmasligi kerak.

Kalit so‘zlar: kamida 10-15 ta so‘zdan iborat bo‘lishi tavsiya etiladi.

Аннотация: Аннотация к статье должна быть представлена на узбекском, русском и английском языках. Аннотация должна кратко отражать содержание статьи, включая актуальность исследования, цель, методологию, основные результаты и научно-практическую значимость исследования. Объём аннотации не должен превышать 100-150 слов. Текст аннотации оформляется в виде единого текста без использования цитат, таблиц, формул и ссылок на литературу.

Ключевые слова: рекомендуется указывать не менее 10-15 слов.

Abstract: The abstract of the article should be presented in Uzbek, Russian, and English languages. The abstract must briefly reflect the content of the article, including the relevance of the research, its purpose, methodology, main results, and scientific-practical significance. The abstract should not exceed 100-150 words and must be written as a single coherent text without quotations, tables, formulas, or references.

Keywords: it is recommended to provide at least 10-15 keywords.

KIRISH

Maqolaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, muammoning ilmiy va amaliy ahamiyati, mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy qarashlar hamda tadqiqotning maqsadi va vazifalari yoritilishi lozim. Shuningdek, tadqiqot obyekti va predmeti, qo‘llanilgan metodlar hamda maqolaning ilmiy yangiligi qisqacha bayon etilishi tavsiya etiladi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Mazkur bo‘limda tadqiqot mavzusi bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, mavjud nazariy yondashuvlar hamda ilmiy qarashlar tahlil qilinishi lozim. Tadqiqot davomida foydalanilgan adabiyotlar matn mazmuniga mos ravishda [1], [2], [3] ko‘rinishida havola tarzida berilishi tavsiya etiladi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan ilmiy metodlar, tahlil usullari, ma’lumotlar manbalari, tadqiqot obyekti va predmeti hamda metodologik yondashuvlar

yoritilishi zarur. Ushbu bo‘lim tadqiqotning ilmiy asoslanganligini va natijalarning ishonchliligini ko‘rsatib berishi kerak.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo‘limda tadqiqot jarayonida olingan natijalar ilmiy asosda tahlil qilinishi, ularning mazmun-mohiyati ochib berilishi hamda muammo yechimiga oid ilmiy xulosalar bayon etilishi lozim. Tahlil jarayonida statistik ma’lumotlar, jadvallar, diagrammalar va boshqa tahliliy materiallardan foydalanish tavsiya etiladi. Olingan natijalar mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilinishi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy аҳамияти asoslab berilishi zarur. Ushbu bo‘limda keltirilgan fikr va ma’lumotlarga tegishli adabiyotlar [1], [2], [3] ko‘rinishida havola tarzida berilishi tavsiya etiladi.

XULOSA

Mazkur bo‘limda tadqiqot natijalari umumlashtirilib, mavzu yuzasidan asosiy ilmiy xulosalar bayon etilishi lozim. Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlangan muammolar, ularning yechimiga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar keltirilishi tavsiya etiladi. Xulosa qismida tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati, uning istiqboldagi ilmiy izlanishlar uchun ahamiyati ham qisqacha yoritilishi zarur. Mazkur bo‘lim aniq, qisqa va mantiqiy yakunlangan shaklda bayon etilishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Mazkur bo‘limda maqola tayyorlash jarayonida foydalanilgan ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar, monografiyalar, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, konferensiya materiallari hamda internet manbalari tartib asosida keltirilishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati 5 ta manbaadan kam bo‘lmagan manba ko‘rinishida taqdim etishi shart. Bibliografik tavsif APA 7th Edition yoki Harvard uslubida rasmiylashtiriladi.

NASHR ETIKASI VA AKADEMIK HALOLLIK

Jurnal faoliyatida xalqaro nashriyot etikasi tamoyillari, jumladan COPE (Committee on Publication Ethics) tavsiyalariga amal qilinadi. Mualliflar tadqiqot natijalarining haqqoniyligi, ma’lumotlarning ishonchliligi hamda mualliflik huquqlariga rioya etilishi uchun mas’uldirlar.

Plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish, mualliflikni noto‘g‘ri ko‘rsatish, bir tadqiqotni takroran nashr etish va boshqa akademik qoidabuzarlik holatlari maqolani rad etish uchun asos hisoblanadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilgan hollarda ularning qo‘llanilishi maqolaning metodologik qismida ochiq ko‘rsatilishi lozim.

TAQRIZLASH VA NASHR ETISH TARTIBI

Jurnalga kelib tushgan barcha maqolalar dastlabki texnik ekspertizadan o‘tkaziladi hamda ilmiy talablarga mos kelgan maqolalar ikki tomonlama anonim taqrizlash (Double Blind Peer Review) jarayoniga yuboriladi. Taqrizchilar xulosasi asosida maqola qabul qilinishi, qayta ishlash uchun muallifga yuborilishi yoki rad etilishi mumkin.

NAMUNA

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF–6079-son Farmon. https://lex.uz
2. Creswell, J. W., & Creswell, J. D. (2018). Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches (5th ed.). Sage Publications.

3. Abdullaev, A. A. (2024). Digital transformation in higher education. In Proceedings of the International Conference on Educational Innovation (pp. 145–152). Atlantis Press.
4. Hwang, G. J., Xie, H., Wah, B. W., & Gašević, D. (2020). Vision, challenges, roles and research issues of artificial intelligence in education. Computers and Education: Artificial Intelligence, 1, Article 100001. https://doi.org/10.1016/j.caeai.2020.100001
5. Ashurov, R. R. (2026). O‘quvchilarni intellektual rivojlantirishning psixologik omillari. Maktabgacha va maktab ta’limi, 4(2). https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/4847
6. UNESCO. https://www.unesco.org

(Maqola matni to‘liq Times New Roman 14 shriftda 1,15 intervalda tayyorlanishi kerak)

Maqola qo‘lyozmasini quyidagi manzillarga yuborishingiz mumkin:
Telegram manzil: https://t.me/fanlararotadqiqotlar yoki @sarhad_5

Rasmiy telegram kanali: https://t.me/fanlararoilmiytadqiqotlar

Jurnal sayti: https://fanlararotadqiqotlar.uz/

☑ **Biz bilan ilmiy hamkorligingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz.**
JURNAL TAHRIRIYATI
https://t.me/fanlararotadqiqotlar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/